

ZAMONAVIY LINGVISTIK YONDASHUVDA KOSMETOLOGIYA TERMINOLOGIYASINING TADQIQI

Xakimjonova Madina Xayotjon qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti
universiteti, Tarjima nazariyasi va amaliyoti ingliz guruhi 4- kurs*

madinaxakimjonova20@gmail.com

+998910400153

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tadqiqot zamonaviy va tarixiy diskurs doirasida kosmetologiya terminologiyasining shakllanish mexanizmlari, evolyutsion rivojlanish bosqichlari hamda lingvistik-strukturaviy xususiyatlarini ilmiy-lingvistik yondashuv asosida tahlil etishga qaratilgan. Malakaviy ishda kosmetologiya atamalarining etimologik manbalari, ularning terminologik tizimga kirib kelish jarayonida fonetik, morfologik va semantik transformatsiyaga uchrashi, shuningdek, zamonaviy ilmiy-nazariy matnlarda qo‘llanish pragmatikasi alohida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: kosmetologiya terminologiyasi; etimologik tahlil; lingvistik adaptatsiya; leksik-semantik ekvivalentlik; tarjima strategiyalari; terminologik standartlashuv; Sharq manbalari; madaniy moslashuv.

Tadqiqot kosmetologiya fani tarixiy rivojining turli bosqichlari - qadimgi kosmetik amaliyotlardan to hozirgi estetik tibbiyot va apparatli dermatologiyagacha bo‘lgan terminologik evolyutsiyani ilmiy manbalar asosida kuzatadi. Ingliz va o‘zbek tillari misolida atamalarning qiyosiy tahlili natijasida tarjima strategiyalari, leksik-semantik moslik darajalari, internatsional terminlar va milliy adaptatsiya mexanizmlari yoritiladi.

Kosmetologiya fani o‘z tabiatiga ko‘ra tibbiyot, biologiya, dermatologiya, fiziologiya, biotexnologiya va psixologiya kabi fanlar kesishmasida shakllangan interdiscipliner ilmiy yo‘nalishdir. Bugungi globallashuv jarayonida go‘zallik industriyasi va kosmetologiya sohasi jadal rivojlanayotgan muhim tarmoqlardan biri bo‘lib, uning til tizimidagi aks-sadosi ham sezilarli darajada kuchaymoqda. Kosmetologik terminlarning shakllanishi, ularning xalqaro terminologik tizim bilan uyg‘unlashuvi, milliy tilga moslashuvi va kommunikativ vazifada qo‘llanishi masalalari zamonaviy tilshunoslikning dolzarb tadqiq yo‘nalishlaridan biridir. Xususan, ingliz, fransuz va koreys tillaridan kirib kelayotgan yangi kosmetologik atamalarni ilmiy jihatdan standartlashtirish, ularning semantik aniqligi va lisoniy me‘yorlarga mosligini ta‘minlash til madaniyati nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot kosmetologiya terminologiyasining lingvistik xususiyatlarini, ularning kelib chiqish

manbalari, morfologik tuzilishi, semantik taraqqiyoti va nutqdagi funksional-pragmatik o‘rnini ilmiy tahlil asosida yoritishni maqsad qiladi. Shuningdek Sharq adabiyotlari va madaniyati jihatidan terminalogik atamalarni qo‘llanishini yoritib beradi.

Lingvistik tahlil

a) Etimologik tahlil:

Kosmetologiya terminlarining katta qismi yunoncha kosmeo - “bezash”, logos - “ta’limot” so‘zlariga borib taqaladi. Zamonaviy terminlarning aksariyati ingliz tilidan (skincare, foundation, retinol, toner), ayrimlari fransuz va koreys tillaridan (balm, ampoule, lip crayon, bb-cream) o‘zlashgan.

b) Morfologik tahlil:

Terminlarning asosiy qismi murakkab tuzilishga ega:

- affiksatsiya yo‘li: hydration - hydra + tion
- qisqartma shakllar: BB (blemish balm), SPF (sun protection factor)
- kompozit modellar: anti-aging cream, oil-free cleanser

O‘zbek tilida esa: yuz niqobi, namlantiruvchi serum kabi sintaktik termin birikmalari ustunlik qiladi.

c) Semantik tahlil:

Terminlar denotativ (aniq ma’no) va konnotativ (go‘zallik, estetik ta’sir yuklangan) xususiyatga ega. Masalan: glow atamasi oddiy “yorqinlik” emas, balki “sog‘lom va tabiiy go‘zallik nuri” semasini ham o‘z ichiga oladi.

d) Funktsional-pragmatik tahlil:

Mutaxassis-muhandislik, tibbiy va marketing diskursida bir xil termin turlicha maqsadda ishlatiladi. Reklama matnida: anti-aging miracle cream - hissiy ta’sir kuchli, ilmiy maqolada esa collagen synthesis stimulating formula kabi neytral-ratsional shakl afzal.

Leksik moslashtirish (ekvivalent qidirish)

Xorijiy terminlarga o‘zbekcha mazmunan yaqin ekvivalent topilgan holatlar:

- moisturizer → namlantiruvchi krem
- face mask → yuz niqobi
- lip balm → lab bo‘yog‘i
- anti-aging → qarishga qarshi

Bu usulda termin to‘liq tarjima qilinadi, xalqchil va oson qabul qilinadigan bo‘ladi.

Semantik adaptatsiya (ma’no moslashuvi)

Ba’zi terminlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirib keladi, lekin ma’nosi o‘zbek nutqiy muhitiga moslashtiriladi:

- peeling → piling (aslida “tovlanish” emas, “terini yumshoq qirib tozalash”)
- serum → serum (biologik emas, kosmetik konsentrat ma’nosida)

•tone → ton (rang ohangi emas, teri balansini tiklash ma’nosida)

Bu holda lingvosemantik tafovut nazarda tutiladi, ya’ni xalq tiliga mos izoh bilan qo’llanadi.

5. Morfologik integratsiya (o‘zbek tiliga grammatik moslashuv)

Chet so‘z o‘zbek tili grammatik me’yorlariga moslashadi:

- tonik → toniklar / tonikni surtish
- piling → piling qilish / pilingdan oldin
- lifting → lifting usuli / lifting teri terapiyasi

Ko‘rinadiki, termin -lar, -ni, -da, -lik, -chi kabi qo‘shimchalar orqali yangi so‘z yasaliş qonunlariga kirib kelmoqda.

Sharq manbalari bilan bog‘langan holda kosmetologiya terminologiyasining tarixiy ildizlari

Sharq sivilizatsiyasi, xususan arab, fors va turkiy mumtoz manbalar, o‘zbek tilida kosmetologik tasavvurlar va terminlarning shakllanishida muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Bu jarayon asosan tabobat, estetik tarbiya, tasavvuf va madaniy -ma’naviy qadriyatlar doirasida rivojlangan.

1. Qadimgi islom tabobati va ilmiy manbalar ta’siri

Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Zakariyo ar-Roziy kabi allomalar asarlarida kosmetik maqsadga oid ko‘plab termin va retseptlar uchraydi.

Masalan:

- gulob (gul suvi) - yuz terisini yumshatish uchun
- ushno - terini oqlovchi niqob
- za’faron, sandal, mushk - yuzga rang va xushbo‘ylik beruvchi vositalar

Bu terminlar hozirgi zamonaviy tonik, serum, detox mask, fragrance funksiyasi bilan qiyoslanadi.

2. Mumtoz adabiyot va estetik tasavvurlarda kosmetik terminlar.

Alisher Navoiy, Jomiy, Nizomiy, Bedil va boshqa shoirlar asarlarida kosmetik manodagi metaforik terminlar uchraydi:

- xol, jamol, zarkash, atir, misqol, surma, anbar atiri

Surmadin ko‘zlar qaro... (Zokirjon Holmuhammad o‘g‘li Furqat

Surmadin ko‘zlar qaro, qo‘llar xinodin lolarang,

G‘ozadin yuzlarda tobu, o‘smadin qoshlar tarring.

Bu yerda Surma, Xina, G‘ozadin (g‘oz yog‘i orqali terini parvarishlash, davolash nazarda tutilgan), o’sma singari milliy kasmitalogik terminlar bor. Bu terminlar nafaqat bezanish vositalari, balki ma’naviy go‘zallik ramzi sifatida qo‘llangan.

Zamonaviy kosmetologiya terminologiyasi fanlararo integratsiya asosida shakllanayotgan dinamik va murakkab terminologik tizimdir. U lingvistik jihatdan tibbiyot, kimyo, biologiya va psixologiya bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, terminlarning shakllanishida xalqaro ilmiy manbalar, lotin-yunon asosli ilmiy leksika hamda ingliz tili global dominant sifatida yetakchi rol o‘ynaydi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, kosmetologik terminlar faqat estetik vazifani emas, balki inson organizmi xavfsizligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Комиссаров В.Н. *Современное переводоведение: учебное пособие*. - Москва: ЭТС, 2013.
2. Ахманова О.С. *Словарь лингвистических терминов*. - Москва: Изд. МГУ, 2010.
3. Виноградов В.В. *О языке художественной литературы*. - М.: Наука, 1999.
4. Beruniy, Abu Rayhon. *Kitob as-Saydana fi-t-tibb*. - Toshkent: Fan, 1973.
5. Ibn Sino. *Al-Qonun fi-t-tibb* (Tibb qonunlari). - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot nashriyoti, 1980.
6. Alisher Navoiy. *Xazoyin ul-maoniy*. - Toshkent: Fan, 1987.
7. Karimov, N. *O‘zbek tilida terminologik tizimlarning shakllanishi*. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.